



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 04 | pp. 72-77 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

INFLYATSION JARAYONLARNI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI



Umarova Mukaddas Abbasovna

ISFT v.v.b. professori (DSc)

Email: mukaddas.umarova@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda narxlar dinamikasini statistik kuzatish, inflyatsiya jarayonlarini baholash va xalqaro standartlarga mos ravishda narx statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish masalalari yoritilgan. Narx indekslarini hisoblash usullari, axborot yig'ish va qayta ishlash tamoyillari, shuningdek, inflyatsiyaning asosiy shakllari va turlari haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: narx statistikasi, inflyatsiya, narxlar indeksi, INI, YaIM deflyatori, deflyatsiya, nominal va real YaIM.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы статистического наблюдения за динамикой цен в Узбекистане, оценки инфляционных процессов и формирования системы ценовой статистики в соответствии с международными стандартами. Приведены методы расчета ценовых индексов, принципы сбора и обработки данных, а также основные формы и виды инфляции.

Ключевые слова: ценовая статистика, инфляция, индекс цен, ИПЦ, дефлятор ВВП, дефляция, номинальный и реальный ВВП.

Abstract: The article examines the statistical monitoring of price dynamics in Uzbekistan, the assessment of inflationary processes, and the formation of a price statistics system in line with international standards. It describes methods for calculating price indices, principles of data collection and processing, and the main forms and types of inflation.

Keywords: price statistics, inflation, price index, CPI, GDP deflator, deflation, nominal and real GDP.

Kirish

Jahon miqyosida globallashuv jarayonlari kechayotgan va milliy xo'jaliklar bir-biri bilan bog'lanib, yagona bozor munosabatlariga asoslangan yaxlit tizimga aylanib borayotgan bir paytda inflyatsiya kategoriyasi muhim tushuncha hisoblanadi.

Inflyatsiya bozor iqtisodiyoti sharoitida makroiqtisodiy barqarorlikning ko'rsatkichlaridan biridir.

So'nggi yillarda ish haqi, pensiya va nafaqalar miqdorini oshirish, jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq stavkalarini kamaytirish, inflyatsiya darajasini pasaytirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida aholining yalpi va real daromadlari sezilarli ravishda oshdi, uning xarid qilish qobiliyati barqaror sur'atlarda o'sib bormoqda.

Bozorda iste'mol talabining pasayishi narx-navo oshishini chegaralasada, keyinchalik pul mablag'larining katta miqdorda emissiyasi hisobidan banklar likvidligini saqlab turish maqsadida banklar va moliya sektorining juda katta miqdorda pul kreditlari bilan to'ldirilishi jahon tajribasi ko'rsatishicha inflyatsiya jarayonlari keskin kuchayib ketish xavfini yuzaga keltirgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida inflyatsion jarayonlar bozor qonuniyatlari asosida belgilanadi. Shunga qaramasdan, inflyatsion jarayonlarni o'rganish barcha mamlakatlarda dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Shu sababli ushbu masalalar bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lган ilmiy-amaliy tadqiqotlar har qanday mamlakat uchun muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonda bozor sohasining barcha sektorlarida narxlar dinamikasini statistik kuzatish amalga oshiriladi. Xalqaro amaliyotda qabul qilingan standartlarga muvofiq narxlarni ro'yxatga olishning qo'llaniladigan usullari va tamoyillari statistik ma'lumotlarning yuqori sifatini ta'minlaydi.

Narx statistikasi faoliyatining sa'y-harakatlari milliy statistikani jahon statistika tizimiga integratsiya qilishga qaratilgan. Dastlabki bosqichda narxlar statistikasi faqat ikkita ko'rsatkich - chakana narxlar indeksi va sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning narxlar indeksi bilan namoyon bo'ldi. 1994 yildan boshlab mamlakatda inflyatsiya darajasini tavsiflovchi umum e'tirof etilgan statistik ko'rsatkich bo'lган iste'mol narxlari indeksini ishlab chiqish boshlandi. Asta-sekin narxlarni kuzatib borish iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida: qishloq xo'jaligi, qurilish, transport va aloqa, shuningdek, aholiga xizmat ko'rsatish sohasida, eksport-import mahsulotlari uchun va iqtisodiyotning ayrim dolzarb kichik sektorlarida tashkil etildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Inflyatsiya darajasini tahlil qilish bo'yicha fundamental iqtisodiy nazariyalar, eng avvalo, bozor iqtisodiyoti qonunlari va printsiplarini ishlab chiqqan klassik iqtisodiy maktab namoyondalari A.Smit, D.Rikardo tomonidan keyinchalik iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish nazariyasi asoschisi J.M.Keyns ishlari bilan bog'lanadi. J.M.Keyns inflyatsiya va ishsizlik darajasini iqtisodiyotda yalpi harajatlarning ortib ketishi bilan bog'liq bo'lган iqtisodiy ko'rsatkichlar sifatida baholaydi.

XVIII asrning ikkinchi yarmi XIX asrning birinchi choragida Buyuk Britaniyada "sanoat inqilobi"ning yuz berishi [1] fonida boshqa davlatlarga nisbatan iqtisodiy g'oyalarning rivojlanishi uchun kulay sharoitlar yuzaga keldi, bu g'oyalar A.Smit va D.Rikardo ta'limotlarida o'z aksini topdi.

Xususan, A.Smitning "Xalqlar boyligining tabiatini va sabablari to'g'risida tadqiqot» asarida tovar va mahsulotlarning qiymati unga sarflangan mehnatdan tashkil topadi. Bunga mos ravishda, tovar narxi haqiqiy va nominal narxlarga ajratiladi. Haqiqiy narx – mazkur tovarning kerakliligi va insonlarga yaratadigan qulayligi bilan o'lchansa, nominal narx ushbu tovar narxining puldagi ifodasıdır[2].

J.M. Keyns o'zining "Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiyligi nazariyasi" kitobida inflyatsiyaga ta'rif berib o'tgan[3]. Unga ko'ra, inflyatsiya –bu ortiqcha talab tufayli vujudga keladigan iqtisodiy jarayon hisoblanadi.

A. Smit matabining davomchisi hisoblangan D.Rikardo tomonidan ham ichki bozorda narxlarning shakllanishi yuzasidan bir qator ta'limotlar ilgari surilgan. Xususan,

iqtisodiyotni erkinlashtirish, savdo uchun to'siqlarni bartaraf etish orqali erkin raqobat muhitini vujudga keltirish orqali narxlarning erkin shakllanishiga qo'yib berish D.Rikardo [4] ta'limotining asosini tashkil etgan.

Rikardoning 1815 yilda yozilgan «Nonga bo'lgan past bahoning kapital foydasiga bo'lgan ta'siri to'g'risidagi tajriba» nomli pamphletida sinflarning iqtisodiy munosabatlari va kapitalizm rivojlanish nazariyasi qisqa, ammo lo'nda tarzda bayon etilgan.

Inflyatsiya bo'yicha yana bir muhim nazariyalardan biri - bu inflyatsiyaning monetar nazariyasidir.

Mazkur nazariya asoschilarining fikriga ko'ra, iqtisodiyotdagi pul massasining o'zgarishi yalpi talab va daromadlar darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi va narxlar shakllanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Monetarizm ta'limotining asoschilaridan biri - M. Fridman hisoblanib, u o'zining "Kapitalizm va erkinlik" (1960 yilda chop etilgan) [5], «AQShning monetar tarixi» (1963 yil) [6] va boshka asarlarida barcha yirik iqtisodiy talofatlar va yuqori darajadagi inflyatsiya pul-kredit siyosatining oqibatlari ekanligini ta'kidlab o'tgan

Iqtisodchi olim J.Xiks esa inflyatsiya darajasini inflyatsion kutilmalar bilan bog'liq holda o'rganadi. Bundan tashqari, M.Fridman [7](iste'mol, pul aylanishi va makroiqtisodiy barqarorlikning o'zaro bog'liqligi sohasida ilmiy izlanishlar olib borgan), B.Bernank va F.Mishkin [8] (inflyatsion targetlash sohasida tadqiqotlar olib borgan) tomonidan ham mazkur sohada ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

O'zbekistonda bu muammolar bilan iqtisodchi olimlardan N.Soatov[9], A.Ayubdjanov[10], Yo.Abdullaev[11], A. Абдурахмонов[12], A.Nabixo'jaev[13], С.Чепель[13], X.Хужакулов [13], X. Shadiyev [14] kabi bir qator olimlar shug'ullanganlar va e'tiborga loyiq fikr mulohazalarini bildirganlar.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot metodologik asosi sifatida Prezident Sh.M. Mirziyoyevning iqtisodiy barqarorlik va inflyatsiyani jilovlash bo'yicha ma'ruzalari, tegishli strategik hujjatlar hamda ilmiy-uslubiy adabiyotlar xizmat qilgan. Axborot manbalari sifatida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda boshqa idoraviy statistik ma'lumotlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Mamlakatimizda inflyatsiya darjasini xalqaro amaliyotda qo'llanilganidek, iste'mol narxлari indeksi (INI) ni hisoblashda iste'mol savatchasiga kiritilgan 510 ta tovar va xizmatlar narxlarining o'zgarishi asos qilib olinmoqda.

1-jadval. O'zbekiston Respublikasida 2012-2024 yillar uchun iste'mol narxлari indeksi dinamikasi

Oylar	O'sish koeffitsienti, oldindi oyga nisbatan (STR), marta												
	2012 yil.	2013 yil.	2014 yil.	2015 yil.	2016 yil.	2017 yil.	2018 yil.	2019 yil.	2020 yil.	2021 yil.	2022 yil.	2023 yil.	2024
Yanvar	1,009	1,010	1,010	1,008	1,008	1,008	1,027	1,015	1,006	1,010	1,009	1,008	1,006
Fevral	1,010	1,010	1,009	1,008	1,008	1,011	1,011	1,016	1,008	1,006	1,005	1,005	1,003
Mart	1,008	1,007	1,006	1,005	1,004	1,009	1,011	1,012	1,013	1,008	1,015	1,010	1,007

Aprel	1,010	1,010	1,008	1,007	1,007	1,010	1,009	1,009	1,017	1,015	1,015	1,008	1,009
May	1,003	1,003	1,002	1,003	1,003	1,009	1,008	1,007	1,003	1,005	1,010	1,005	1,028
Iyun	0,993	0,994	0,996	0,995	0,995	1,003	0,996	0,995	0,998	0,998	1,009	0,997	0,998
Iyul	0,994	0,988	0,989	0,988	0,988	1,004	0,997	0,996	0,997	0,998	0,999	0,998	0,997
Avgust	0,997	1,000	0,999	0,998	0,998	1,006	1,003	1,029	1,005	1,005	1,005	1,005	1,005
Sentyabr	1,009	1,010	1,010	1,010	1,011	1,014	1,018	1,013	1,014	1,011	1,010	1,012	1,012
Oktyabr	1,012	1,011	1,010	1,010	1,010	1,013	1,013	1,016	1,014	1,013	1,012	1,010	1,008
Noyabr	1,010	1,010	1,009	1,011	1,011	1,020	1,023	1,018	1,015	1,012	1,013	1,011	1,009
Dekabr	1,012	1,011	1,010	1,011	1,012	1,027	1,021	1,015	1,016	1,013	1,012	1,012	1,010
O`rtacha oylik STR	1,006	1,005	1,005	1,005	1,005	1,011	1,011	1,012	1,009	1,008	1,008	1,010	1,008
LTR1 ₁₂	1,070	1,068	1,061	1,056	1,057	1,144	1,143	1,152	1,111	1,100	1,122	1,088	1,098

Shuningdek, INI va shu kabi ko`rsatkichlarni hisoblashda va prognoz qilishda qisqa va uzoq muddatli indekslardan foydalaniladi. Indekslarning o`rtacha oylik darajasini hisoblash xodisaning umumiy o`zgarishini baholash uchun yetarli bo`lmaydi, buning uchun albatta o`rtacha oylik indekslardan kelib chiqib oldingi yil dekabriga, oldingi yil mos davriga, oldingi chorakka, o`tgan yilning mos choragiga nisbatan narxlar o`zgarishini hisoblash zaruriyati tug`iladi. Indekslarning xossalari va xalqaro tajribada tan olingan usullardan foydalanib yuqorida sanab o`tilgan uzoq muddatli indekslarni ham hisoblash mumkin bo`ladi. Qisqa muddatli, ya`ni oldingi oyga nisbatan o`zgarishini STR ko`rsatkichi ifodalasa, uzoqroq muddatlarda narxlarning o`zgarishi LTR ko`rsatkichining turli shakllarini hisoblash orqali aniqlanadi. Quyidagi 1-jadvalda 2001–2021 yillar mobaynida mamlakatimizda kuzatilgan qisqa muddatli (STR) INI ko`rsatkichlari keltirilgan.

2- jadval. O`zbekiston Respublikasida 2024 yilda kuzatilgan barcha (INI bo`yicha) infliyatsiya darajalari dinamikasi

Oylar	STR		2022 dek = 1 LTR1		2023dekk = 1 LTR1*	Ushbu oyning o`tgan yil xuddi shu oyiga nisbati LTR2	Ushbu chorakni ng oldingi chorakka nisbati LTR3	Ushbu choraknin g o`tgan yilning xuddi shu choragiga nisbati LTR4	O`sib boruv- chi LTR5
	2023y	2024y	2023y	2024y					
Yanvar	1,008	1,006	1,008	1,095	1,006	1,086			1,086
Fevral	1,005	1,003	1,014	1,098	1,009	1,083			1,084
Mart	1,010	1,007	1,024	1,105	1,016	1,079	1,083	1,023	1,083
Aprel	1,008	1,009	1,032	1,116	1,026	1,081			1,082
May	1,005	1,028	1,037	1,147	1,054	1,105			1,087
Iyun	0,997	0,998	1,034	1,144	1,052	1,106	1,097	1,033	1,090
Iyul	0,998	0,997	1,033	1,141	1,049	1,105			1,092

Avgust	1,005	1,005	1,038	1,147	1,055	1,105			1,094
Sentyabr	1,012	1,012	1,051	1,161	1,068	1,105	1,105	1,013	1,095
Oktyabr	1,010	1,008	1,062	1,171	1,077	1,102			1,096
Noyabr	1,011	1,009	1,074	1,182	1,087	1,100			1,096
Dekabr	1,012	1,010	1,088	1,194	1,098	1,098	1,100	1,028	1,096

2012-2024 yillarda YaIMning barqaror o'sishi ta'minlandi. Shu yillar mobaynida mamlakatda yirik ishlab chiqarish korxonalari (Andijondagi Asaka avtomobil zavodi, Buxorodagi neftni qayta ishlash zavodi va boshqa) ishga tushishi natijasida mamlakatimizning YaIMning o'sishi ta'minlandi. Buning zamirida mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarning izchillik bilan olib borish samarasi sifatida ifodalash mumkin.

3-jadval. O'zbekiston Respublikasida 2000-2024 yillarda inflyatsion jarayonlar

Yillar	INI	Yillar	INI
2000	28,2	2013	6,8
2001	26,6	2014	6,1
2002	21,6	2015	5,6
2003	3,8	2016	5,7
2004	3,7	2017	14,4
2005	7,8	2018	14,3
2006	6,8	2019	15,2
2007	6,8	2020	11,1
2008	7,8	2021	10,0
2009	7,4	2022	12,3
2010	7,3	2023	8,8
2011	7,6	2024	9,8
2012	7		

YaIM, import-eksport va boshqa makroiqtisodiy ko`rsatkichlarning, shu jumladan qurilish, sanoat kabi sohalarning o'sish (kamayish) sur'atini hisoblashda taqqoslama narxlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Xulosa va takliflar

Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish bo'yicha qabul qilingan chora-tadbirlar,—iqtisodiyotning real sektoridagi tarkibiy o'zgarishlar, milliy valyuta almashuv kursini yetarli darajada devalvatsiya qilinishi inflyatsiya va davlat byudjeti kamomadini barqaror past darajasini ushlab turishga sezilarli ta'sir qildi.

Inflyatsiyaga qarshi olib boriladigan kurash natijasi ijobiy bo'lishi uchun avvalo inflyatsiyani yuzaga keltiruvchi sabablar aniqlanishi lozim. Ma'lumki, inflyatsiyaning asosiy sabablari pul hamda tovar bozorlardagi kamchiliklarga bog'liq. Ushbu kamchiliklar yalpi talabning yalpi taklifdan ustunligidan kelib chiqadi, demak davlat tomonidan olib boriladigan inflyatsiyaga qarshi chora-tadbirlar o'z ichiga yalpi talabni tartibga solishga mo'ljallangan yoki yalpi taklifni tartibga solishga mo'ljallangan bo'lishi kerak.

Inflyatsiyaga qarshi chora-tadbirlar bevosita yalpi talab va taklifga ta'sir ko'rsatib, nomutonosib bozorlarga yoki inflyatsiyani keltiruvchi omillarga ta'sir etishi lozim. Bu esa, o'z navbatida, inflyatsiyaga qarshi strategiya ishlab chiqishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ишмуротова Р. "Иқтисодий таълимотлар тарихи". Маъruzalap matni. Тошкент автомобиль ва йўллар институти. Т.: -2001, 27-36 б.
2. А.Смит. Исследование о природе и причинах богатства народов. – Издательство "Эксмо", 1776 – (Антология экономической мысли)
3. Дж.М.Кейнс. Общая теория занятости, процента и денег. М.: ЗАО «Бизнеском», 2013. – 408 с. – (Библиотека Генерального Директора).
4. Д. Рикардо. Начало политической экономии М., 1955. С. 33
5. Фридман М. Капитализм и свобода.— М.: Новое издательство, 2006.— 240 с.—ISBN 5-98379-054-4 (англ. Capitalism and Freedom, 1962)
6. Фридман М., Шварц А. Монетарная история Соединенных Штатов 1867–1960 гг. – К.: «Ваклер», 2007. – 880 с. – ISBN 978-966-543-127-5 (Рецензия журнала «Бизнес») (англ. A Monetary History of the United States: 1867–1960).
7. Friedman M. Government Revenue from Inflation// The Journal of Political Economy, Vol. 79, No. 4. (Jul.– Aug., 1971), pp. 846–856
8. Ben S. Bernanke, Thomas Laubach, Frederic S. Mishkin, and Adam S. Posen Inflation Targeting is published by Princeton University Press and copyrighted, 2001. P. 17
9. И.И.Еслеева. Эконометрика : учебное пособие - М.:Финансы и статистика, 2001 г. стр.41-87.
10. Soatov N.M, Ayubjonov A.X. /Statistika nazariyasi/. Darslik.-T.: O'qituvchi, 2020 – 647 bet.
11. Ё. Абдуллаев. Статистика назарияси. Дарслик.- Т «Ўқитувчи» 2002.-592 б.
12. Abduraxmonov.A.D. Bozor jarayonlarining indeks tahlili. Toshkent-Iqtisodiyod-2020. 79 bet.
13. А.Набиходжаев, С.Чепель, Х.Хужакулов. Система показателей индексов цен. Учебное пособие /-Т.: «Iqtisod-Moliya», 2011. 112 с.
14. Statistika bo'yicha praktikum (2-nashr), O'quv qo'llanma. X. Shodiyev va I.Habibullayevlarning umumiy tahriri ostida. T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2015, 336 bet.
15. Umarova M.A. Statistik tahlil. O'quv qo'llanma «Innovatsion rivojlanish nashri matbaa uyi»-2021, 120bet.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

